



NAMANGAN VILOYATIDA INNOVATSION FAOLIYAT

INNOVATSIYA - BARQAROR RIVOJLANISH OMILI

Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda innovatsion g'oyalarni o'z vaqtida amaliyotga, jumladan ilm-fanga, sanoatga keng tadbiiq etish - islohatlar samaradorligining bosh mezonidir. Innovatsiya bozor talabidan kelib chiqqan holda jarayonlar va mahsulotlarning sifatli o'sish samaradorligini ta'minlash uchun joriy etilgan yangilikdir. Har qanday turdagi yangilik esa faqatgina yangilik emas, balki mavjud tizimning samaradorligini jiddiy ravishda oshiradigan omil sifatida tasir etishi zarur. Innovatsiya bilim va g'oyaning mablag'ga aylanishidir.



Innovatsiya - korxonalar yoki tashkilotning bozorga chiqarish (amaliyotga joriy qilish) uchun mo'ljallangan ijodiy faoliyatining samarasidir.

Innovatsion faoliyat oxirgi 3 yil davomida yakunlangan yangi bilimlarga sarmoya kiritishni qo'shgan holda texnologik jihatdan yangi yoki **sezilarli darajada** takomillashtirilgan mahsulotlar yoki jarayonlarning yuzaga kelishiga olib keluvchi barcha ilmiy, texnologik, tashkiliy, moliyaviy va tijorat chora- tadbirlarini qamrab oluvchi faoliyatdir.

Namangan viloyatida 2018 yilda 192 ta xo'jalik yurutuvchi sub'ektlar tomonidan innovatsion mahsulotlar, ishlar va xizmatlar bajarildi. Ulardan 91 tasi 2018 yilda, 106 tasi 2016-2017 yillar davomida bajarilgan. Bundan tashqari 2016-2018 yillar davomida 30 ta tashkilot va korxonalar tomonidan innovatsion mahsulotlar, ishlar va xizmatlar takomillashtirilgan.



NAMANGAN VILOYATIDA INNOVATSION FAOLIYAT

Shu jumladan 181 ta kichik biznes sub'ektlari tomonidan innovatsion mahsulotlar, ishlar va xizmatlar bajarilgan bo'lib, ulardan 84 tasi 2018 yilda, 95 tasi 2016-2017 yillar davomida bajarilgan. Bundan tashqari 2016-2018 yillar davomida 25 ta tashkilot va korxonalar tomonidan innovatsion mahsulotlar takomillashtirilgan.




Namangan viloyati bo'yicha jami 643385,0 mln so'mlik innovatsion mahsulotlar, ishlar va tovarlar bajarilgan.

Jumladan: 2018 yilda birinchi marta o'zlashtirilgan innovatsiyalar xajmi 155678 mln so'm, 2016-2017 yillar davomida birinchi marta o'zlashtirilganlari xajmi 390313,1 mln so'm, 2016-2018 yillar davomida takomillashtirilganlari xajmi 97893,9 mln somni tashkil etdi.



NAMANGAN VILOYATIDA INNOVATSION FAOLIYAT

2018 yilda o'z kuchi bilan ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmi
(QQS va aksizsiz, mln so'm hisobida)




2018 yilda moliyalashtirish manbaalari va texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarga xarajatlar xajmi 136723,1 mln so'mni tashkil etdi. Ulardan korxonalar va tashkilotning o'z mablag'i hisobidan 120604,5 mln so'm, chet el investitsiyalari mablag'lari hisobidan 12456,4 mln so'm, byudjet mablag'lari hisobidan 288,4 mln so'm, tijorat banklari kreditlari hisobidan 3141,0 mln so'm va boshqa mablag'lar hisobidan 47,1 mln so'm sarf xarajat qilingan.



NAMANGAN VILOYATIDA INNOVATSION FAOLIYAT

2018 yilda innovatsion mahsulot, tovar va xizmatlarni moliyalashtirish manbaalari



2018 yil davomida innovatsion faoliyat turlari bo'yicha 136723,6 mln so'm xarajat qilingan. Jumladan:

Texnologik innovatsiyalar viloyat bo'yicha 60 ta xo'jalik yurutuvchi sub'ektlar tomonidan joriy qilingan. Jami joriy qilingan texnologik innovatsiyalar soni 109 tani tashkil etadi. Ulardan 100 tasi xo'jalik yurutuvchi sub'ektlarning o'z kuchi bilan amalga oshirilgan.

Texnologik innovatsiyalar bo'yicha qilingan xarajatlarda (kapital va joriy xarajatlarda) jami 134051,7 mln somni tashkil etdi. Undan 120346,8 mln so'm

mahsulotlar bo'yicha xarajatlarda va qolgan 13704,9 mln so'm jarayonlar bo'yicha qilingan xarajatlarda tashkil etadi.



NAMANGAN VILOYATIDA INNOVATSION FAOLIYAT

Marketing innovatsiyalar bo'yicha qilingan jami xarajatlar 2582,7 mln so'mni tashkil etgan. Ushbu innovatsiya viloyat bo'yicha 3 ta tashkilot tomonidan o'z kuchi bilan joriy qilingan.

Tashkiliy innovatsiyalarga qilingan jami xarajatlar viloyat bo'yicha 89,2 mln so'mni tashkil etdi.

2018 yilda innovatsiya turlari bo'yicha qilingan xarajatlar (mln so'm hisobida)



**NAMANGAN VILOYAT
STATISTIKA BOSHQARMASI
IJTIMOIY SOHA STATISTIKASI
BO'LIMI**
Telefon (71-230-84-94); (69-227-84-94);